

Mehringizni ayamang bit-bitringizdan!

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

TONG

YULDUZI

2009-yil
21-sentabr
N:38
(66735)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

DUSHANBADAN

BALLI, SHAMUN VA JAHONGIR!

Ularning ikkisi ham 9-sinf o'quvchilari. Respublika musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan maktab-internatda tahsil olishadi. Shu yilning 7-12-sentabr kunlari Italiyaning Fermo shahrida o'tkazilgan VII Xalqaro zarb musiqa asboblari ko'rik-tanlovida faxrli birinchi va uchinchi o'rinlarni qo'lga kiritishdi.



210 TA QUVONCH

Kitob tumanining eng olis hududidagi Yuqori Ayoqchi qishlog'ida yangi maktab binosi foydalanishga topshirildi. Yangi o'quv yilida 210 nafar o'quvchining shodligiga shodlik qo'shildi.

Vatan Sizlarga shunday katta imkoniyatlar yaratayotgan ekan, unga munosib farzand bo'lish burchingiz ekanligini unutmang!

DILBAROY QISHLOQDAN QAYTDI

Xo'sh, nima bo'пти, deysizmi? Biroz shoshmang. Haqiqatan u Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi Xo'jaqo'rg'on qishlog'ida o'zining ko'rgan-

kechirganlarini juda qiziqarli insho tarzida ifodalabdi.

Gazetamizni kuzatib boring, ajoyib inshoni keyingi sonlarda chop etamiz.



DUSHANBA GACHA

Sadafmoh MUHAMMADIYEVA Boysun tumanidagi 6-maktabning 8-(V) sinfida o'qiydi. U shifokor bo'lishni ko'ngliga tukkan. A'lo baholarga o'qiyotgan tengdoshingizning orzusi amalga oshishini tilaymiz.

3 - betda

Bugun gazeta va jurnallar tahririyatlarida ishlar har qachongidan ham qizg'in. Yangi yil obunasini tashkil etishga mutasaddi bo'lgan xodimlarning qo'li qo'lga tegmaydi. Ko'p qatori tahririyatimizda ham obuna ishlari avji pallada. Odatdagidek obuna oldidan joriy yildagi ko'rsatkichlarni bir ko'zdan kechirib oldik. Har doimgidek Samarqand viloyati o'quvchilari peshqadam. Ular ortidan Namangan, Farg'ona va Andijon viloyati o'quvchilari borishmoqda.



OBUNA QANCHA BO'LDI?

Beixtiyor o'ylanib qolasan. Nega Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Surxondaryo, Buxoro, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent viloyati va shahrida maktab o'quvchilarining yagona davlat nashri bo'lgan «Tong yulduzi» gazetasining obunasi havas qilarli darajada emas?

Yil boshidan buyon bizni o'ylantirib kelayotgan holat biroz oydinlashgandek bo'ldi. Negaki, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlardagi maktab o'quvchilaridan gazetamizga xatlar kam kelardi. Endi hammasi ravshan. Mazkur viloyatlarda obuna darajasi nihoyatda past. Bundan kelib chiqadiki, gazetamiz bilan tanish bo'lgan bolalarning ham soni kam. Shunday bo'lgach, maktublar ham kam kelishi tabiiy.

Gazetamizni muntazam kuzatib borayotgan o'quvchilar o'z maktublarida tengdoshlari qo'lga kiritayotgan yutuqlar, tahsil olayotgan bilim maskani, yashab turgan joylaridagi ibratli ishlar haqida ko'ngildan yozadilar. O'zlari yozgan she'r va hikoyalardan namunalar yo'llashadi. Bu nolni ko'rib, yana o'yga tolasan kishi. Nima uchun yuqorida nomlari sanab o'tilgan viloyatlarning aksariyat o'quvchilari shunday imkoniyatlardan unumli foydalanmayaptilar?! «Tong yulduzi» Respublika bolalar va o'smirlarning yagona davlat nashri hisoblanadi. Shu bois, boshqa nashrlarga nisbatan obuna bahosi ancha arzon. Uning sahifalarida yurtimiz bolalari hayotiga oid yangiliklar, atoqli yozuvchi va shoirlarimizning yangi asarlaridan namunalar, ta'lim tizimidagi islohatlar, fidoyi ustozlar tajribasi haqida maqolalar, eng asosiysi, o'quvchi yoshlardan kelayotgan xat va xabarlar keng o'rin berilgan.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, gazetamizni bolalar qo'lga yetib borishida mutasaddi tashkilotlar bilan bir qatorda ota-onalarning ham ishtiroki nihoyatda zarur ekan. Soatlab kompyuter qarshisida o'tiradigan, maza-bemaza filmlarni ko'rishga mukkasidan ketgan bolajonlar qo'lga gazeta yoki kitob tutqazish, avvalo ota-onaning vazifasi-ku axir!

Xalqimizda «Bolaning bir qo'lga non, bir qo'lga kitob bering», degan hikmatli naql bor. Yurtimizda ma'nalan barkamol avlodni tarbiyalash yo'lida katta ishlar amalga oshirilayotgan bir paytda bolalarni yoshligidan gazeta va jurnal, kitob bilan oshno qilish bu borada muhim ahamiyatga ega. Yuqorida eslatib o'tganimizdek, obuna arafasida joriy yil boshidagi ko'rsatkichlarga yana bir nazar tashladik. G'alvir ko'tarildi. Ana xolos!

Samarqand viloyatida yilning boshida 21003 o'quvchi obuna qilingan bo'lsa, qo'shni Buxoro viloyatida bu ko'rsatkich 6918 tani tashkil qiladi.

Bu hali holvasi ekan. Ma'lum bo'lishicha, obuna bo'yicha «rekord» natija Sirdaryo viloyatiga tegishli bo'lib chiqdi. Bor-yo'g'i 847 ta! «Shohsupa»ning keyingi pog'onalaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi 1511 ta, Navoiy viloyati 3095 ta, Toshkent shahri 3022 ta, Xorazm viloyati 3785 ta va 4817 obunachisi bilan Toshkent viloyati joy olgan.

Qiyosiy tahlillarni davom ettiramiz. Qashqadaryo viloyatida 8040 nafar o'quvchi gazetamizga obuna bo'lgan bir paytda qo'shni Surxondaryo viloyatida uning teng yarmi 4308 o'quvchi obuna ekanligi kishini ajablantiradi. Sirdaryo viloyatiga nisbatan oladigan bo'lsak, 6990 o'quvchi obuna bo'lgan jizzaxliklarning faolligi tahsinga sazovor.

Biz boshqacha manzarani kutgan edik. Afsuski, qaysar raqamlar holatni ko'zgudagidek qilib namoyon qilib turibdi.

Bizningcha peshqadam bo'lish imkoniyati barchamizda mavjud. Farzandlarimizni yurtboshimiz takidlaganlaridek bizdan-da aqlli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari yo'lida sa'y-harakat qilar ekanmiz, bu borada ommaviy axborot vositalarining ahamiyati beqiyos ekanligini yoddan chiqarmasligimiz lozim. «Tong yulduzi» gazetasi siz bilan bu yo'lida hamisha hamkorlik qilishga tayyor!

Yusuf ABDULLAYEV

Nihollar bo'y cho'zdi

Qadrdon bilim maskanimiz bag'riga qaytganimizga ham bir oycha bo'lib qoldi. Lekin qalblarimizni quvonch va hayajon tuyg'ulari hali tark etgani yo'q. Yangi ta'mirdan chiqqan chiroyli, shinam sinf xonalarda o'qishning gashti bo'lakcha-da! Poytaxtdagi 22-maktabimiz hovlisi, bog'imiz va gulzorimizning ko'rkini aytmaydizmi? Erta bahorda ekan nihollarimiz bo'y cho'zib, gullarimiz chamandek ochilibdi. Ko'rgan kishining bahri dili ochiladi. Bu kimlarning mehnati samarasi? Albatta, mehdaryo o'qituvchilarimizning-da! Biz yozgi ta'tilda miriqib dam oldik. Nodira Sharipova, Mohira Karimova singari ustozlarimiz esa sinf xonalarimizni, bog'imizni, gulzorimizni, hovli va yo'laklarni begona o'tlardan tozalab, kelishimizga maktabimizni taxt qilib qo'yishibdi. Bilim maskanimizni avaylab-asrashimiz, puxta bilim olishimiz, til o'rganishimiz ularning bunday g'amxo'rliklariga munosib javobimiz bo'ladi.

Dilorom RIZAYEVA,
yosh muxbir

ENG CHUQUR DARA

Chernogoriyada joylashgan Tara darasi Yevropadagi eng chuqur dara bo'lib, uning chuqurligi bir kilometr, uzunligi 90 kilometrga yetadi.

Shvetsariyadagi Dyufur cho'qqisi 4634 metr, Avstraliyadagi Groslokner tog'i 3797 metr, Germaniyadagi Stushpitse tog'ining balandligi 2962 metr chiqadi.

ENG YUKSAK CHO'QQI

Monblan (Fransiya alpi) Yevropadagi eng baland tog' cho'qqisi bo'lib, uning balandligi 4807 metr.

XITOIY DEVORINING UZUNLIGI QANCHA?

Xitoy Xalq Respublikasi kartografiya boshqarmasi o'tkazgan tadqiqotlar Buyuk Xitoy devorining uzunligini 8 ming 851 kilometr 800 metr bo'lganligini ko'rsatdi.



Bo'ka tumanidagi 23-sonli umum-
ta'lim maktabining boshlang'ich ta'lim
o'qituvchisi Yulduzxon Bozorova 4-«B»
sinf o'quvchilari davrasida.
Husanboy AVVALOV olgan surat

(Boshi o'tgan sonlarda)

SHE'RIYAT OLAMIGA SAYOHAT

«ALIFBE» BAYRAMI

Opam Rahima Akbarova boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lganini aytdim. Opamdan hali maktabga bormasimdan o'nga yaqin harfning qanday yozilishini, yuzgacha sanashni o'rganib olgandim. Ilk marotaba «ona» va «mashina» so'zlarini ayvon ustuniga yozganimni haligacha xotirlayman.

Maktabda Rahima Qo'chqorova degan hamqishloq opamiz savodimizni chiqardi. 1969-yilning qishida «Alifbe» bayramimiz bo'lib o'tdi. Bu bayram hayotimda o'chmas iz qoldirgan birinchi tadbir bo'ladi. Men she'r deb atalgan mo'jizani ilk bor ana shu bayramda sevib qoldim. Bu bayramda «V» va «G» sinf o'quvchilari (men «G» sinfida o'qirdim) qatnashishdi. Barcha bolalar 2 qatordan she'r o'qigach, davraga Abdurashid va Gulchehra ismli «V» sinf o'quvchilari

chiqishdi. Ular Natasha ismli qo'g'irchoq haqidagi she'rni obrazga kirib shunday qotirib aytib berishdiki, eshitib, og'zim ochilib qoldi. Nega men shu she'rni aytmadim, deb ma'yus tortib qoldim.

Qo'g'irchoq'im Natasha,
Yeb qo'yibdi ko'p kasha.
Endi nima qilamiz,
Doktorga oboramiz.
- A'lo, a'lo do'xtirjon,
Bizda bitta kasal bor!
Uning oti o'yinchoq,
Familiyasi qo'g'irchoq.

Natasha ismli o'yinchoqning familiyasi qo'g'irchoq ekani mening murg'ak tasavvurimni ostin-ustun qilib yuborgan, nazarimda dunyoda bundan qiziq va bunday chiroyli she'r yo'qdek edi.

Shuning uchun ham she'rni dialog tarzida o'qib bergan Abdurashid

BOYSUNDAGI ILMI BOY MAKTAB

Alpomish yurti Boysunda hech bo'lganmisiz? Bu o'ltaning haybatli tog'lari, yam-yashil adirlari, baland-baland chinorlari kishi hayratini oshiradi. Bu o'lkada tug'ilib o'sgan inson borki, betakror tabiat mo'jizalaridan bahramand bo'ladi. Uning bag'rida kamol topayotgan o'g'il-qizlar iqtidoriga tengdoshlari ham qoyil qolishadi.

Bugungi qahramonlarimiz Surxondaryo viloyati, Boysun tumanidagi 6-maktabda bilim oladilar. 1990-yilda

qurilgan ushbu maskanda hozirda 1124 o'quvchi tahsil olmoqda. Maqtovga loyiq tomoni shundaki, o'tgan yili viloyat miqyosida o'tkazilgan fan Olimpiadalarida Aziza Ochilova, Begzod Shomurodov, Sanjar Boyqobilov hamda Farida Xolmahmatova 1-o'rinni qo'lga kiritibdilar. Olimpiadada bilimdonlar bilan bellashish oson kechmaganini o'quvchilar bilan suhbatlashib, bilib oldik.



G'oliblarning sirini bildik

Begzod SHOMURODOV, 9-sinf o'quvchisi:

– Olimpiadada matematika yo'nalishi bo'yicha 1-o'rin sohibi bo'ldim. O'sha vaqtda quvonchimni ichimga sig'dirolmay qoldim. O'yab ko'rsam, hisob-kitobni yaxshi bilishim menga har qadamimda qo'l kelgan ekan. Nafaqat maktabda, balki bozorlarga, do'konga borganimizda ham sotuvchidan oldin hisoblasam, ular juda aqlli yigit ekansan, deyishadi. Buning barchasiga matematikani chuqur o'rgananim sabab, deb o'ylayman.

Farida XOLMAHMATOVA, 9-sinf o'quvchisi:

– XXI asr texnika asri bo'lgani uchun hozirda kompyuterda ishlashni bilmaydigan o'quvchini uchratish qiyin. Bizning maktabda ham informatika fani kompyuterda o'qitiladi. Bu fanni qiziqib o'rgananim bois, viloyatda o'tkazilgan Olimpiadada informatika yo'nalishida 1-o'rinni qo'lga kiritdim. Muvaffaqiyatimdan oila a'zolarim ham, ustozlarim ham xursand bo'lishdi.

Sanjar BOYQOBILOV, 9-sinf o'quvchisi:

– Davlatimiz mustaqil bo'lgach, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan edi. Vatanimizning kelajagi biz yoshlarning qo'lida ekan, demak, har birimiz iqtisodni mukammal bilishimiz lozim, deb o'ylayman. Shuning uchun iqtisodni chuqur o'rganishga ahd qilganman. Shu kungacha ozmi-ko'pmi maqsadimga erishdim. Olimpiadada ishtirok etib, iqtisod bo'yicha 1-o'rinni egalladim. Kelgusida o'z maqsadim sari intilib, yurtimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga o'z hissamni qo'shaman.

Aziza OCHILOVA, 9-sinf o'quvchisi:

– Men ham ushbu Olimpiadada qatnashib, ona tili va adabiyot yo'nalishi bo'yicha 1-o'rin sohibasi bo'ldim. Biz erishgan yutuqlarga, eng avvalo, ustozlarimiz sababchi deb o'ylayman. Ular berayotgan bilim tufayli turli Olimpiadalarda boshqa maktab o'quvchilari bilan bellashib, yaxshi natijalarga erishyapmiz. Ana shunday yutuqlarga erishayotganimiz uchun maktabimizdagi barcha ustozlarimizdan minnatdormiz...



SADAFMOHNING REJASI

Ustoz maslahatiga amal qilib, 8-«V» sinf o'quvchisi Sadafmoh Muhammadiyeva kelajakda shifokor bo'lishni rejalashtirib qo'yibdi. Buning uchun biologiya va odam anatomiyasi fanlarini hozirdanoq chuqur o'rganayotgan ekan. Uning fikricha, bemor insonlar dardiga davo topish savobli ish hisoblanarkan. Sadafmoh kelajakda bemorlarni davolash bilan birga, ustozlari orzu qilganidek har tomonlama yetuk inson bo'lishni niyat qilibdi.

DILLARNI SHOD AYLAB

– Dillarni shod aylasin, deb ismimni Dilshod qo'yishgan, – deydi 8-«B» sinf o'quvchisi Dilshod Hikmatov. – Ism inson taqdiriga katta ta'sir o'tkazar ekan. Oynayi jahon orqali san'atkorlarning qo'shiq kuylab chiqishlarini ko'rsam, kayfiyatim ko'tariladi. Shunday vaqtlarda kelajakda san'atkor bo'lishni orzu qilaman. Orzum ushalib san'atkor bo'lsam, men ham elga manzur bo'ladigan qo'shiqlar kuylayman. Xalqimiz san'atini jahonga namoyon etib, Vatanimizga munosib farzand bo'laman.

Yo'lingiz tushib, Siz ham Boysunga borsangiz, go'zal tabiat qo'ynida joylashgan bu maktabni bir ko'ring. Tashrifingizdan quvonib, biri-biridan bilimdon, zukko, hozirjavob tengdoshlaringiz bilan tanishib qaytishingizga ishonamiz.

KELAJAKNI KO'ZLAB

O'quvchilar bilimiga baho berish uchun ustozlar faoliyatiga nazar soldik. Maktabda 60 nafar oliy ma'lumotli, 2 nafar to'liqsiz, 19 nafar o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilarning bari o'quvchilarga sidqidildan saboq berib kelmoqdalar. Shu sababdan ham izlanuvchan ustozlarning mehnatlari shogirdlarning yutuqlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. O'quvchilari qalbida o'z faniga mehr uyg'ota olgan bu ustozlar hozirdanoq shogirdlari kelajagini ko'zlab ish tutyaptilar, shogirdlariga kasb tanlashda adashmaslikni qayta-qayta maslahat bermoqdalar.

G'oliblar so'zlarini tinglar ekanmiz, ularni muvaffaqiyatlari sirini bilib oldik. Buning uchun ustoz bergan saboqni yaxshilab o'zlashtirib olish kifoya ekan.

bilan Gulchehraga ancha vaqtgacha havasim kelib yurgan.

IKKINCHI HAYAJON

She'r tinglab, ikkinchi marta qattiq hayajonlangan kunimni ham juda yaxshi eslayman. 1975-yilning 9-mayida men hozirgi kunda istiqomat qilib kelayotgan Yangiyo'l tumanining Niyozbosh qishlog'idagi «Madaniyat» saroyida adabiy-badiiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Qishloq mutasaddilari Niyozboshdagi 5 ta o'rta maktabning 200 ga yaqin 4-5-sinf o'quvchilari uchun O'zbekistonning eng yetuk bolalar shoirlari va yozuvchilari bilan adabiy-badiiy uchrashuv tashkil etishgan edi. Quddus Muhammadiy, Ilyos Muslim, Aziz Abdurazzoq, Miraziz A'zam va yana boshqa ko'plab taniqli ijodkorlar bu uchrashuvga Toshkentdan yetib kelishgan edi. Aziz Abdurazzoq bilan Miraziz A'zam o'qigan she'rlar hanuz qulog'im ostida jaranglab turganday. Ayniqsa, Aziz a'zaning «Arslon» degan she'rini barcha gulduros qarsaklar bilan kutib olgan edi.

Mana o'sha she'r, o'qib ko'r, u senga ham albatta yoqadi:

ARSLON

Men arslondan qo'rqmayman,
U kuchukning kattasi.
Men arslondan qo'rqmayman,
U kuchukning dadasi.
To'ni sariq, beqasam,
Xo'rozlardan toji bor.
Yaqin borib qarasam,
Toji emas, sochi bor.
Deyman unga achinib,
Taranishga qo'li yo'q.
Yoyib yurar sochini,
Oldirishga puli yo'q.

Qisqasi, 13 yoshimda xotiramga naqshday muhrlanib qolgan bu uchrashuv mening adabiyotga, she'riyatga bo'lgan mehrimini yanada oshirib yubordi, yana qog'oz qoralashimga turtki bo'ldi. Kelgusida albatta shoir bo'laman, deb ijod bilan jiddiy shug'ullanishga ahd qildim.

1975-yilning kuzida «Yangiyo'l»

gazetasi qoshidagi «Orzu» adabiy uyushmasi mashg'ulotiga qatnab, shoir va muallim Obid Rasuldan she'r borasida saboq ola boshladim. 1977-yili «Tong yulduzi» gazetasi qoshida «Yosh muxbirlar maktabi» ish boshladi. Bu maktabga qatnab, shoir Hamza Imonberdiyevdan she'r yozish sirlarini o'rgandim. 1978-yilning boshida O'zbekiston radiosining «Bolalar va o'smirlar uchun eshittirishlar tahririyati» qoshida «Binafsha» adabiyot to'garagi ochildi. O'zbekiston xalq shoiri Quddus Muhammadiy boshqargan bu to'garak mashg'ulotlariga Yangiyo'l dan muntazam ravishda qatnadim. To'garakda Po'lat Mo'min, Muhammadjon Qo'shoqov, Rauf Tolib, Ilyos Muslim, Berdiboy Ergashev, Sulton Jabbor, Temur Ubaydullo, Ikrom O'tbosarov, Olim Mahkam, To'lqin Ilhomov, Meli Normatov kabi taniqli shoir va jurnalistlarning suhbatlarini tinglab, «ijod»ga zo'r berdim. Yozishda esa hanuz oddiy so'zlarni tizish, «lola»ga «bola»ni

qofiyalashdan nariga o'tmasdim.

Qancha harakat qilmay, istamay, Quddus bobom aytgan «ong ko'zim» sira ochilay demasdi. Hamza akam ham, Temurakam ham qo'ldan kelgancha she'r haqida tushuncha berishga harakat qilar, mashqlarimni u yer bu yerini tuzatishib, «Tong yulduzi» va «Gulxan»da chiqarishsa ham, men she'ming asl mazmun-mohiyatini, uning qanday va qay tariqa va qay taxlit dunyoga kelishini bilmasdim. Bila olmayotganimdan ich-ichimdan ezilib, yig'lardim ham...

O'sha paytlarda «G'uncha», «Gulxan» va «Tong yulduzi»dan paydar pay xatlar olardim. Ularda she'rlarimda badiyat yo'qligi sababli, jurnal yoki gazetada foydalanish imkoni bo'lmaganligi bayon etilar edi...

Badiyati nima ekan, deb boshim qotardi.

Abdurahmon AKBAR

(Davomi bor)

RANG TOPISHNI UNUTMANG!

Yurtimizga oltin kuz keldi. Bu faslning ko'ngillarni yayratadigan o'z gashti bor. Ijod ahli kuzda to'kiladi. Yaproqlar to'kilib, borgan sari dilingizning tub-tubidagi sog'inch-u armonlari ham qanot yoza boshlaydi.

Daraxtlar meva va yaprog'idan ajralib yengil tortgani kabi shoirning dardlari to'kilsa, o'zini yengil his etadi.

Kuz ilhomlari qalbingizni tark etmasin. Oltin rangli yaproqlarga tikilib she'rlaringizga rang topishni unutmang!

GULZORDA

Gulzorda men terib yurardim gullar,
Buncha ham chiroyli bo'lmasa bular?!
Gullar ichra alvon kabi atirgul,
U meni o'ziga rom etdi butkul.
Bolari bu guldari yig'ar edi bol,
Unga termulardim tilim qolib lol.
Shu on ari nogoh xayolim yanchdi,
Kichik barmog'imga nishini sanchdi.
Mening barmog'im-ku tuzalib ketar,
Afsus, u hayotni butkul tark etar.

Shohinur USMONOVA,

Sirdaryo viloyati,

Sayxunobod tumanidagi

28-maktabning 5 -«A» sinf o'quvchisi



GULLAR

Gullar tilsiz so'zlaydi dardin,
Chiroyiga aldanib qolmang.
Kulib turib so'raydi qadrin,
So'lishini yuziga solmang.

Qarasangiz uning yuziga
Nafosat-u ifor ko'rasiz.
O'z dardi-la boqar dunyoga,
Ma'yusligin shunda bilasiz.

Ertasidan umidi katta
G'am berkinar kulgu ortiga.
Zavqingizni pinhon etolmay,
Siz ko'nasiz darhol shartiga.

Sokina BAHODIROVA,

Toshkent shahar, Chilonzor
tumanidagi Sirojiddinov nomli
akademik litsey o'quvchisi

GLOBUS

Yum-yumaloq globus,
Dunyo uning ichida.
Katta dengiz yo'qoldi
Barmog'imning uchida.

QUYON

Qo'rqqoq mening yuragim,
Shart ham emas keragi.
Omon bo'lsin qulog'im
Va qochishga oyog'im.

TROLLEYBUS

Ko'tarib qo'sh qo'lini,
Topib ketdi yo'lini.

QIRQOYOQ

-Jimitdek jonivorning
Qirqa ekan oyog'i.
-Oyog'i ko'p bo'lsa-da,
Bittayam yo'q barmog'i.

TOSHBAQA

Sayohat -rohat, derlar,
Ko'rgan qolar dunyoda.
Yo'lga chiqib yer yuzin
Kezsammikan piyoda.

OSHQOVOQ

Olamni u kuzatdi
So'ng ariza uzatdi.
Da'vo qipti oshqovoq,
Qani menda qosh-qovoq?!

2009-YIL - QISHLOQ TARAQQIYOTI
VA FAROVONLIGI YILI


Davlatimiz tomonidan chekka hududlarga alohida e'tibor bilan qaralayotgani sir emas. Quvonarlisi, bunday o'zgarishlar Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yilida yanada keng quloq yoymoqda. Zamonaviy uy-joylar, litsey, kollej va maktablar qurilib, hammaga, ayniqsa, bolajonlarga quvonch ulashayapti. Yo'llar asfaltlanib, aholining tabiiy gaz, toza ichimlik suvi, elektr energiyasi bilan to'liq ta'minlanayotgani esa ziyarak o'quvchilarni befarq qoldirmayapti.

Bunga javoban bolalarimiz kindik qoni to'kilgan makonini yanada ko'rkam, go'zal va ozoda saqlashga harakat qilmoqdalar. Buni tahririyatimizga kelayotgan maktublarda ham kuzatishimiz mumkin. Quyida Namangan viloyati, Uychi tumanidagi 36-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Kimyo opa Rasulovaning maktubini e'tiboringizga havola etamiz:

Assalomu alaykum «Tong yulduzi» gazetasi xodimlari! Men «Yosh qalamkashlar» to'garagi rahbariman. Maktabimiz o'quvchilari «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini intilqik bilan kutishadi. Ayniqsa, «Qishlog'im - qalb ardog'im» tanlovda yoritilayotgan maqolalarni zavq bilan o'qishmoqda. O'z qishloqlarini hamma yerdan afzal ko'rishadi. Undagi obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlarida faol ishtirok etishmoqda.

Yangi o'quv yilining ilk kunlaridanoq o'quvchilarimga qishlog'imiz haqida insho yozishlarini topshirdim. 8-«G» sinfining eng a'lochi, ijodkor o'quvchisi Maftunabonuning maqolasi menga ma'qul bo'ldi. Uni sizlarga yo'llayapman.

QISHLOG'IM MANZARASI



Gavhar Sulaymonova Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumanidagi 26-maktabning 5-sinfida o'qiydi. Ustozi, «Shuhrat» medali sohibi Shuhrat Namozovdan rassomchilikni qunt bilan o'rganyapti.

Gavharning chizgan rasmlari tuman miqyosida o'tkazilgan rasmlar ko'rgazmasida munosib baholandi.

BIZGA DARS BO'LDI

Qishlog'imning nomi Uychi deb nomlanadi. Ilgari qishlog'imiz qamishzor ko'p bo'lgan ekan. Bir kishi kelib qamishzorlarni tozalab, yer ochib dehqonchilik qilgan. U uyini chiydan qurganligi uchun «Uyi chiy», keyinchalik esa Uychi bo'lib ketgan ekan.

Hozirgi kunda Uychi aholisi 183 mingga yetadi. Har bir xonadon ahil, inoq, mehmondo'st va xushf'e'l. Qishlog'imiz tonglarini ta'riflashga so'z o'z o'z. Mahallamizdan uncha uzoq bo'lmagan joyda bog' bor. Bu bog'da yong'oq, behi, jiydalar o'sadi. Siz jiyda gulini ko'rganmisiz? Jiyda gulidan olam iforga to'ladi.

Ana shunday go'zal diyorning «Eng ko'rkam xonadoni» tanlovda yutib chiqishga harakat qilyapmiz. Bu kabi tanlovlar tez-tez bo'lib turadi. «Intilganga tole yor» tadbirida esa to'qson bilan yuzlashgan Ma'suda momo va bir qator ayajonlarning hikmatli, ibratli so'zlari bizga dars bo'lyapti.

Erta tongda hammaga gazeta va jurnal tarqatib, ma'rifat ulashayotgan Furqat tog'a, iste'dodli yoshlarni qo'llaydigan Abdumajid bobo, faxrli o'qituvchimiz Qodir amaki bizning faxrimiz.

Maktabimiz esa jonajon maskanimiz. U yerda darsdan tashqari ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan. «Mohir qo'llar», «Shaxmatchilar», «Gulchilik» kabi to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda. Sinfimizga ajratilgan maydonga atirgul ko'chatlari, xurmo daraxtlarini ekkid. Men qishlog'im bilan faxrlanaman.

Maftuna AKBARALIYEVA,

Uychi tumanidagi 36-maktab o'quvchisi

KO'CHABOSHNING IBRATLI ISHLARI

Men Yashiqobod qishlog'i, Ko'chaboshi mahallasida tug'ilganman. Qishlog'imizning nomi bobolarimiz va tarixchilarimizning aytishicha, «Oshiq», «Quyosh» degan ma'noni anglatarkan. Ko'chamiz boshidagi choyxonaga bobolar har shanba yig'ilishadi. Ular o'zaro suhbat qilib, diydor ko'rishishadi, palov damlashadi. Boshqa mahallalik bobolardan yaqinlari qayerga ketayapsiz, deb so'rashsa, ko'chani boshidagi choyxonaga, deb javob berishar ekan. Shundan beri mahallamiz nomi «Ko'chaboshi».

Bu yil qishlog'imda katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Choyxona qayta ta'mirlandi, savdo va go'sht do'koni qurildi. Aynan shu yili har yildagidan ko'proq ko'chatlar ekildi. Katta bog' yaratildi. Ko'chatlar unib-o'sib hosilga kirsas, ajabmas, mahallamiz nomi «Bog'mahalla» bo'lib ketsa.

Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yilida qishloqdoshlarim yanada baxtli. Chunki ular uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochildi. Har 3 ta uyning 2 tasida bulg'or qalampiri va baqlajon ekiladi, ular chet davlatlarga eskport qilinadi. Bu yil har yildagidan ko'proq foyda qilib, ro'zg'orlarini butlashmoqda. Mahallamiz chekkasidagi qarovsiz yerlar ham aholi tomonidan o'zlashtirilib, ekinlar ekilmoqda. Ta'mirga muhtoj eski binolar qayta ta'mirlanib, aholiga xizmat ko'rsatmoqda.

Xullas, Ko'chaboshining ibratli ishlari juda ko'p. Hammasini yozsam, vaqt yetmaydi. Senga ko'z tegmasin, qadrdon qishlog'im!

Sanjarbek XABIBULLAYEV,

Uchqo'rg'on tumani



GULLARNI SEVING, AMMO...



Katta tanaffusda dugonam bilan maktabimiz atrofini aylanib yurgandik. Yo'lakning ikki tarafida chamandek ochilib yotgan gullarni ko'rib, ko'zimiz chaqnab ketdi. Chiroyli gullardan uzib olib, yo'limizda davom etdik.

Dugonam bilan allaqanday mavzuda bahslashib borib, o'zim sezmaganda qo'limdagi gullarni so'litib, ezg'ilab yuboribman. Ustozimiz Barno opa: «Parvina, gullarni namuncha qiynamasang, axir ularning ham joni, uvoli bor. Gullar insonlarni ezgulikka, yaxshilikka undaydi, bahri dilini ochadi, kayfiyatini ko'taradi. O'z navbatida ular ham mehrga tashna, parvarishimizga mushtoq», deya kuyunib gapirganlaridan keyingina qo'limdagi gullarga qarabman. Darhaqiqat, ularning yaproqlari so'lib, ezilib ketibdi. Qilgan ishimdan juda uyalib ketdim.

Shu voqea sabab bo'ldi-yu, gullarga mehrim ortdi. Endi ular chiroyidan zavqlanibgina qolmay, mehr bilan parvarishlaydigan bo'ldim. Keling, do'stlarim, gullarni sevyalik, ammo uvol qilmaylik.

Parvina ASHUROVA,
yosh muxbir

Yaqinda sahifamiz nomiga Mohigul Oripova ismli qizimizdan bir maktub keldi. Samarqandlik tengdoshingiz, katta tanaffusda o'ynashimiz uchun turli harakatli o'yinlar ham tavsiya qilsangiz, degan ajoyib bir taklif kiritibdilar.

Bu taklif bizga juda ma'qul bo'ldi. Chunki harakatli o'yinlar bolalarning jismoniy barkamol bo'lishi uchun emas, balki aqliy va axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, ularning jismoniy qobiliyati ham taraqqiy etadi boradi, yurak va nafas sistemasining faoliyati yaxshilanadi.

Shu jihatlarni e'tiborga olib, turli harakatli o'yinlar qoidalarini tavsiya etib borishni rejalashtirdik.



DOIRANI TOP

O'yinchilar ikki jamoaga bo'linib, start chizig'ida bir qator saf tortib turadilar. Har bir jamoa qarshisida, 3-4 metr masofada arg'amchidan diametri 1 metrli doira hosil qilinadi.

Boshlovchining ishorasidan so'ng birinchi o'yinchilar ko'zlarini ro'molcha bilan bog'lab, doira o'rtasida turadilar. Boshlovchining ikkinchi ishorasidan so'ng, ular doiradan 5-8 qadam oldinga chiqib, yana doira ichiga qaytadilar. Doira ichiga adashmay qaytib kelgan o'yinchiga 1 ochko beriladi. Ko'p ochko to'plagan jamoa g'olib hisoblanadi.

QOG'OZ,

Bir kuni tokhada yotgan Qog'oz, Qalam, O'chirg'ich uchchovlon suhbatga kirishib ketishibdi. Qalam ko'krak kerib maqtanibdi:


– Men insonlarga juda kerakman. Chunki men bo'lmasam, ular yoza olishmaydi.

– Bekorlarni aytibsan, agar men bo'lmasam, sen qayerga ham yozarding? – deya e'tiroz bildiribdi unga bir chekkada yotgan Qog'oz. – Shuning uchun men insonlarga ko'proq kerakman.

Shunda ularni chekkadan kuzatib turgan O'chirg'ich shunday debdi:

– Bo'ldi, bas, bilsangiz agar, insonlarga eng keraklisi menman. Noto'g'ri yozilgan so'zlarni mendan bo'lak hech kim o'chira olmaydi.

QALAM,



Ular o'zaro bahslashib turgan paytda bir kishi qo'lga qalam, qog'oz, o'chirg'ich olib, shunday bir san'at asarini yaratdiki, buni ko'rgan Qog'oz, Qalam va O'chirg'ich kuch birlikda ekanligini anglab yetishdi.

Mahbuba
RASHIDOVA

TANAFFUSDA XAT YOZDIM

Qadrdon gazetam «Tong yulduzi»! Bilasanmi, sen bugun juda xayrli ish qilding. Butun maktabimizni xursand qilding. Qolaversa, arazlashib yurgan ikki do'stni yarashtirib qo'yding. Qanday qilib, deysanmi? Kel, yaxshisi bir boshdan gapirib bera qolay.



Biz G'anisher ismli do'stim bilan arzimagan narsaga arazlashib yurgandik. Bugun ertalab sinfga kirsam, G'anisher: «Sening ertaging va topishmog'ing «Tong yulduzi»da chiqibdi», deb qolsa bo'ladimi?! Avvaliga bu gapga unchalik ishonmadim. Chunki maktub yo'llaganimga ancha vaqt bo'lgandida. Maktubim yetib bormagandir-da, degan xayolda edim. Qarasam, haqiqatan ham chiqibdi. Buni ko'rib, juda xursand bo'lib ketdim va do'stimni quchoqlab oldim. Shu bahonada ikki do'st yarashib oldik. Bu

ko'tarinki kayfiyat kun bo'yi menga hamroh bo'ldi. Minnatdorchiligimni ichimga sig'dira olmay, katta tanaffusdayoq senga maktub yozishga kirishdim.

Rustam JO'RAYEV,
Surxondaryo viloyati, Angor tumanidagi 37-o'rta ta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

XANDALAR SAYOHATDA



Sayohat chog'ida o'qituvchi o'quvchilardan so'radi:

– Bolalar, aytinglar-chi, biz hozir qaysi tarafga ketyapmiz?

Baqa loq bir bola javob berdi:

– Janubga.

– Buni qayerdan bilding?

– Oldinga yurganimiz sari isib ketyapman-da...

MUG'OMBIR BOLA

Otasi o'g'liga dedi:

– Doniyor, darsingni tayyorlab bo'lgach, oyingga yordam bergin.

– Xo-o.

– Nima, xo'?

– Axir o'zlari dars tayyorlayotganimda, menga yordamlashmaydilar-ku...



O'CHIRG'ICH



(Boshi o'tgan sonlarda)

USTOZ

Tahririyatda yana bir bo'yi uzunu odam bor edi. U kishi Hamid Jalolov edilar. Maktab bo'limini boshqaradigan bu kishini men ilgari maktabda o'qib yurganimda ko'rgan edim. «Yangiyo'l» gazetasida yosh muxbirlarni chaqirib, tez-tez yig'ilish o'tkazib turishardi. Hamid akani o'shanda ko'rganman. Bitta tumandan bo'lganimiz uchunmi, ko'nglimga yaqin olib gaplashardim. U kishi ham topshiriqlar berardilar. Yozganlarim ko'proq shu kishining bo'limidan chiqardi. Hamid aka ilgari maktabda yetakchi bo'lib ishlagan, bolalar hayotini juda yaxshi bilar, biz muxbirlarga tinchlik bermas edilar. Bir kuni u kishi:

– Shunday ko'cha bo'lsaki, u yerda yashayotgan bolalar faqat «4» va «5»ga o'qisa, ko'chasi toza, ozoda bo'lsa, ko'rgan odam: «Voh, qanday ajoyib ko'cha ekan», deb u yerda yashaydiganlar bilan qiziqib qolsa, nima deysiz? Shunday bo'lishi mumkinmi? – dedilar.

Men «bo'lmas-ov» degandek, u kishiga qaradim. Axir bitta ko'chada qancha bola o'qiydi-yu. Ularni bitta qolipga solib bo'larmidi?

– Bitta sinf o'quvchilari misolida bo'lishi mumkin, – dedim shunda ham o'ylanib.

– Bu sizga tahririyatning topshirig'i, – dedilar Hamid aka qat'iy, – hamma tomonlama namuna bo'ladigan ko'chani toping, bilaman, bu darrovda bo'ladigan ish emas, balki bir yil ketar, ikki yil ketar...

Hamid akaning masalani dabdurustdan bunday ko'ndalang qo'yishi meni o'ylantirib qo'ydi. Bo'lsang bo'l-u, bo'lmasang, bu sohada boshingni qotirib yurma, demoqchimilar? «Yo'q» desam, ustozning hafsalasini pir qilib qo'yaman. Buni ustiga tahririyatning topshirig'i deb turibdilar. Bundan keyin yozganlarim gazeta yuzini ko'radimi, yo'qmi, Xudo biladi. «Xo'p» deb qo'ysam, o'qiyman, buning ustiga ikkita joyda ishlayman. Aytam, bahona qilyapti, deyishlari mumkin. Xullas, topshiriq ancha malol olib keldi. Bunaqa namunali ko'chani topish uchun Toshkentdek azim shaharni kezib chiqishim kerak. Ustiga-ustak qishloqdan qatnab o'qiyman. Yo'lning o'ziga uch soat vaqt ketadi. Diqqat bo'lib turib qolganimni Hamid aka ko'rdilar-da:

– Aftidan, o'ylab ko'rmoqchiga o'xshaysiz, mayli, o'ylang, balki bunaqa ko'chani Yangiyo'l shahridan toparsiz, – deb qoldilar. O'ylash uchun fursat borligini eshitib, xursand bo'lib ketdim. Hamid aka bu topshiriq bilan mening kelajagimni hal qilayotganlarini bilmas edim. Balki o'zlari ham bilmagandirlar. Har holda bolaligimda Jannat opaga yordam

bermoqchi bo'lib, muxbirlik ko'chalariga kirib qolganlarimni esladim. Axir bu ham ezgu ish-ku. Bitta ko'chada yashaydigan bolalar faqat yaxshi baholarga o'qisa, xulqlari, odoblari, hovli-joylari chiroyli bo'lsa, buning nimasi yomon?!

Shunday qilib, Yangiyo'l shahridagi 5- maktab bolalari yashaydigan bitta ko'chani tanlab, ishini boshlab yubordim. Baxtinga maktabning yetakchisi Gulferuza ismli qiz bu ishga chippa yopishdi. Qaytaga shu bahonada ishlarimni yaxshilab olaman, dedi u. Bir safar ota-onalarni yig'ib gaplashamiz, keyingi safar o'quvchilarni. Kattalar uylarining ko'chaga qaragan betkay tomonlarini chiroyli qilishga kirishib ketishdi. Xullas, bir ko'cha odamlari bir oila a'zolariga o'xshab qoldi.

Shunday kunlarning birida maktabdan kech qaytdim. Ota-onalar majlisi bo'lgan edi. Men o'sha namunaviy ko'chadan kelayotgan edim. Simyog'ochlarga chiroqlar o'rnatilgan, lampochkalar nur sochib turardi. Qaraganning ko'zi quvonadi. Hamid akani o'ylayman.

Rosa kallali odam-da. Mana, qilsa bo'lar ekan-ku. Ana shunday xayollar bilan avtobus bekati tomon borardim. Oxirgi avtobusga ulgurishim kerak. Kutilmaganda bekatdan ancha berida uchtasi yo'limni to'sib chiqdi.

– Sen, hey, shaharlik olifta, – dedi bittasi pichoq o'qtalib, – Gulferuzani tinch qo'y.

Qolgan ikkitasi ikki tomondan oyog'imni oyoqlari bilan ezib, qimirlatmay qo'ydi. Uchchovidan ham vino hidi anqirdi. Agarda ular Gulferuzaning ismini tilga olishmaganida, shunchaki bezorilar deb o'ylab, bir yo'lini qilgan bo'lardim. Dalada ketmon chopaverib, o'tin yoraverib, har qalay mushklarim pishib ketgan edi. Har qanday mahalla yigitlari ham mahalladosh qizlarini begonalardan qizg'anishlarini yaxshi bilaman. To'g'riyam qilishadi.

– Men bu yerga faqat ish yuzasidan kelyapman, og'aynilar...

– He, ish-pishingni... – deb so'kindi pichoq tutgani. Uning ko'zlari rashkdan yonardi. Sezdimki, shunisi qizni yaxshi ko'radi. – Bo'sang-chi, – dedi yonidagisi uni turtib, – birov kep

qolmasdan bir yog'lik qilsang, qil.

Rostdan ham birov kelib qoldi. Yana kim, choyxonachi. Yigitlar o'zlarini men bilan gaplashib turganga solishdi. Men choyxonachiga salom berdim. Albatta begona odam bo'lganda, u yog'i nima bo'lishini Xudo bilardi. Men u odamdan yordam so'ramagan bo'lardim. Yigitchilik, g'urur degan narsa yo'l qo'ymas edi.

MUXBIRLIKNING**OLIS YO'LLARI**

– E, lektor o'g'lim, ko'rinmay qoldingiz? – deb choyxonachi amaki men bilan qo'l olib ko'rishdi.

– Kirsam, pul olmayapsiz-ku, – deb o'zimni majburlab kuldum.

– Bo'pti, endi olaman, faqat kirib turing. Bugun kech qopsiz, qolavering...

– Majlis bo'luvdi, yetvolaman, – dedim-da, yigitlarga: «Qolgan gapni yanagi shanbada gaplashamiz», deb bekat tomon shoshdim.

Shu o'rinda andek mulohaza qilaylik: Insonni balo-yu ofatlardan nima asraydi? Uning ezgu ishlari bo'lsa kerak. Men ishim ko'p, deb choyxonachining gapini yerda qoldirganimda, chollarga ma'ruza qilmaganimda, nima bo'lardi? Shuning uchun ham xalqimiz, yaxshilik qil, daryoga tashla, der ekan-da.

Bahor, yoz o'tib, yangi o'quv yilining birinchi yarim yil yakuniga yetguncha qish ham kirib qoldi. Mavzu yetilib qolgan, ammo qor yog'ib, chiroyli ko'chamiz deyarli boshqa ko'chalar bilan bir xil bo'lib qolgan edi. Bugungidek imkoniyatlar yo'q. Bahor, yoz, kuz fasllaridagi ko'chani ko'rinishlarini suratga oldirib qo'ymaganmiz. U paytlarda suratchilar

Erkin MALIK

anqoning urug'i edi. Shunday qilib, bu ko'chaga «Yulduzli ko'cha» deb nom berdik. Alvondan katta yulduz yasab, ichiga chiroq qo'yib, ko'cha boshidagi simyog'ochga o'rnatdik. Bu ko'cha shahardagi eng namunali ko'cha bo'lib, yuz ochdi. Unda tahririyatdan mas'ul kotib Nazrulla Umarov ishtirok etdilar. Gazetaning keyingi sonida «Yulduz porlagan

ko'chalar» sarlavhasi bilan kattagina maqola bosilib chiqdi.

Hamid aka xursand bo'lib azza-bazza meni tabrikladilar.

– Axir bu sizning g'oyangiz, maslahatingiz bilan bo'ldi-ku, – dedim men noqulaylik tuyib.

– E, soddavoy, g'oya berish oson, hamma gap uni yuzaga chiqarishda.

Buni qarangi, bu yaxshi ish deb topilib, butun respublikaga yoyildi. Bir kuni tahririyatga chaqirishib, yosh muxbirlar to'garagining yig'ilishida menga yuqori idoraning «Faxriy yo'rliq»ini topshirishdi. Lekin bu hammasi emas ekan. Eng katta mukofot institutni tamomlashimga yarim yil qolganda bo'ldi. Taqsimot kengash a'zolariga

qayerga borib

ishlashimizni aytilishimiz kerak edi. Men Yangiyo'l shahriga borib ishlashni xohlardim. U yerda kattagina shahar kutubxonasi bor edi. Niyatimni ustozim Hamid akaga aytgan edim, u kishi kulib:

– Biz sizni ishga chaqirmoqchimiz, – dedilar.

– Qanday qilib, axir men... – dedim-u, quvonganimdan tomog'imga bir nima tiqilib, gapirolmay qoldim. Meni tahririyatga ishga olishlari mumkinligini tasavvur ham qilmasdim. Shunda bir opaning: «Jurnalist bo'lish uchun jurnalistikada o'qish shart emas», degan so'zlarini esladim.

– Hozircha bu ikkalamiz o'rtamizda sir bo'lib tursin, – dedi Hamid aka, – bir haftadan keyin xabar oling.

– Taqsimot kengashi a'zolariga nima dey?

– Hozircha hech nima.

Men uchun shu bir haftaning o'tishi juda qiyin bo'lgan. Bamisoli osmonda uchib yurganman...


(Davomi bor)

SPORT

YO'LGA CHIQQAN XAT

Shahrisabzlik polvonlar Abduqodir Pirmatov va Nodirxon Muzaffarov ko'p yillar davomida raqiblarini kuragini yerga tekkizgan nomdor polvonlardan biri.

Biz bugun ana shu polvonlar kamol topgan Shahrisabz bolalar va o'smirlar kurash maktabi haqida muxtasar so'z yuritmoqchimiz. Tashkil topganiga 8 yildan oshgan kurash maktabi o'zbek sportiga ko'plab chempionlarni tayyorlab berdi. Milliy kurash bo'yicha jahon birinchiligi g'olib va sovrindorlari



Otabek Maqsudov, Davron Sattorov, Shohida Nazarova, mohir kurash ustalari Shuhrat Nazarov, Ozod Kamolov maktab faxriga aylangan.

Umiddi yosh polvonlar Behruz Muzaffarov, Kamol Rasulov, Sanjar Yo'ldoshev respublika birinchi-liklarida peshqadamlar safida.

– Bugungi kunda kurash maktabimizda 554 nafar sportchi tarbiyalanyapti, – deydi biz bilan suhbatda maktab direktori Abdulkarim Aminov. – Xolbobo

Avloqulov, Ilhom Murodov kabi jonkuyar murabbiylarimiz iste'dodlarni izlab topish va ularni sportchi qilib tarbiyalash bo'yicha boy tajribaga ega. Shogirdlarimiz turli Olimpiya zahiralari kollejlarda tahsil olishyapti.

Yangi o'quv yili boshlandi. Mashg'ulotlar pallasi. Chempion bo'lish kurash maktabimizga kelgan har bir sportchining orzusi. Haligacha maxsus zaliga ega bo'lmagan maktabimizning shiori: «Umid qilmoq»dir.

Darvoqe, biz xuddi shu masala bo'yicha yaqinda Shahrisabz tuman madaniyat va sport ishlari bo'limiga xat yozdik. Eshitishimizcha, muammomizni ijobiy hal qilish uchun xat yo'lga chiqibdi...

DONO BOBO



BEKATI

Yaxshilikmi, bolam, yaxshilik zinatdir, u quyosh kabi harorat, ona misoli mehr va eng muhimi, umringga umr qo'shadi. Ammo bilki, yaxshilik qilish hammaning ham qo'lidan kelmaydi. Buning uchun odam bolasi, avvalo ilmi bo'lishi, odob-axloqda zukko va tarixni yaxshi bilishi kerak.

Yaxshilikning eng yaxshi ko'rinishlari qaysi, deysanmi, bolam? Eshit:

Eng birinchi yaxshilik onaga ko'rsatilgan ehtiromdir, Vatanni sevish, insoniyatga ma'rifat berish ham shu qatorga kiradi. Onangni hurmat qilsang, yurtga bo'lgan mehri ortib, o'z qadring va obro'ying haqida o'ylab ish tutadigan bo'lasan. Yaxshilik qilsang, bir kun Vatan seni ko'klarga ko'taradi. Insoniyatga ma'rifat bersang, olam seni boshiga ko'taradi. Bitta yaxshilik tufayli shuncha e'zoz va sharaf topsang yomonmi?!

– Yaxshilik qilishni qayerdan o'rganish mumkin?

– Yaxshi kitoblardan, donolar o'gitlaridan va ota-onaning pand-nasihatlaridan!

– Yaxshilikni nimalar buzadi?

– Ilm olishga sovuqqonlik bilan qarash, ustozlarga bemehr bo'lish, serhasham va go'zal liboslarga ruju qo'yish, halol tilni haqoratli so'zlar bilan bulg'ash, ta'magirlik, ochko'zlik va badnafslilik buzadi yaxshilikni.

Bugungi sabog'imiz yetarli deb o'ylayman. Har kuni yetti kishiga bir yaxshilik qilishni odat tusiga aylantirki, sendan har kuni hamma xursand bo'lib yursin, bolam. Keyingi suhbatimizgacha fikrlaringni yozib yuborishni unutma!

ISPANIYADAN

Bolalar, kuni kecha oynayi jahon orqali Misrga jo'nab ketayotgan akalaringizga havas qildingizmi? Ular bugun o'zbek futbolining faxriga aylandilar.

Ko'rsatuvni ko'rib borayotgan ota-onalaringiz 20 yoshli futbolchi akalaringizga qarab: «Qaniydi bizning farzandlarimiz ham elga tanilsa», deya duoga qo'l ochgan bo'lsalar, ajabmas.

Biz esa ularga izdosh bo'lmoqchimiz, deysizmi? Barakalla! Unda Misrda bo'lib o'tadigan jahon chempionatini kuzatib boring.

XVII jahon chempionati 24-sentabr, 16-oktabr

kunlari bo'lib o'tadi. Unda dunyoning 24 ta eng kuchli terma jamoalari g'oliblik uchun maydonga tushadilar. Futbolchi akalaringiz ushbu musobaqaning «D» guruhida Gana, Urugvay va Angliya terma jamoalari bilan keyingi bosqichga chiqish uchun bellashadilar.

Chempionatga tayyorgarlik uchun jo'nab ketgan futbolchilarimiz so'nggi mashg'ulotlarini Ispaniyada o'tkazadilar. Ispaniyadan Misrga yo'l olayotgan bosh murabbiy Ahmad aka Ubaydullayev va uning shogirdlariga, yurtga g'alaba bilan qayting, deb qolamiz.

MISRGA

– Uning oti Amin ekan, – deyishdi bolalar o'z guruhlariga kelgan yangi bola bilan tanishib. Bo'ylari balandgina, qorachada kelgan Amin bilan men ham qiziqib qoldim.

– Samarqanddan keldingmi?

– Ha, saharda yo'lga chiqqandik, musobaqaga kech qolmadik.

Hali Amin bilan suhbatimiz tugamay, boshiga barqut do'ppi kiygan tadbirkor amakisini tanishtirdi:

– Amakim Obloqul aka Fayzullayev

«Registon – S» mahallalararo futbol maktabiga stadion qurib,

avtobus ham olib berdilar. Haydar aka Kenjayev esa

respublika toifasidagi hakam, – dedi kattaroq yoshli sport

kiyimidagi kishiga ishora qilib.

– Bugun 12 yoshli Aminjon bolamizni «Paxtakor»



«REGISTON – S»NING HOMIYSI

bolalar futbol maktabining 1998-yil jamoasiga olib keldik. U federatsiyaning seleksionerlari tomonidan tanlab olindi.


Ayni kunda mashg'ulotlarimizda shahrimizdagi o'n sakkizta mahalladan 6 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan futbolga qiziquvchi bolalar qatnashmoqda. Viloyat miqyosidagi musobaqalarda muntazam ishtirok etmoqdamiz. Zafar Hamidov Guliston shahrida bo'lib o'tgan «Umid nihollari» musobaqasida «Eng yaxshi darvozabon», deya e'tirof etildi, – deydi murabbiy faxrlanib.

Maydonda Aminjon yangi jamoadoshlari bilan birinchilik uchun bellashar, murabbiyi esa uning

kamchilik va yutuqlarini diqqat bilan kuzatardi.

Bugun «Registon»da umid bilan to'p tepayotgan bolalarga homiylik qilayotgan Obloqul akaga havas qilib, savob ishni har kim, har kuni qila olishiga amin bo'ldik.

ANDALAR



- Hoy, bola, nega boyadan beri yomg'irda turibsan? Shalabbo bo'lib ketibsan-ku...

- Men uydan qochib ketdim, cho'miltirishmoqchi bo'lishuvdi...

* * *

Ona qiziga dedi:

- Mana senga o'nta konfet. Yarmini ukangga ber.

- Men unga uchtasini beraman.

- Nega endi?! Sanashni

bilmaysanmi?

* * *

Otasi o'g'lidan so'radi:

- Nega tishingni ketma-ket yetti marta yuvyapsan?

- Bir haftaga yetsin deb...

* * *

Madina ko'chadagi yengil mashinalarga ancha tikilib turgach, so'radi:

- Avtomobillar katta bo'lganda, nima bo'ladi? Avtobus bo'lishadimi?..

Fayzulla ABDULLAYEV

HIMOVACHI


Ilgari sigir boqar edim. «Charos» nomli ona sigirimiz buzoqchali bo'ldi. U kundan-kunga kuchga to'lib, chiroyli buzoqchaga aylandi. Biz u bilan do'stlashib qoldik. Bir yil o'tgandan keyin men uni yaylovga olib chiqib, o'tlatadigan bo'ldim.

Bir kuni qo'shnimizning qopag'on iti yechilib ketib, menga tashlandi. Choponimdan tishlab, oyog'imga yopishdi. Shu payt buzoqcham boshini egib shohi bilan bahaybat kuchukni bir suzdi, u osmonga ko'tarilib, yerga shalop etib tushdi. Yana ikki-uch bor zarba yegan it vingillab qochdi. Buzoqcham yaramas itni uyigacha quvib bordi.

Butun qishloqqa bu voqea ovoza bo'ldi. Men hech qachon buzoqcha o'z egasini shunday himoya qilishini xayolimga ham keltirmagan edim.

Tohir IBRAGIMOV,

Ilvira DAUKAYEVA chizgan rasm



BILIMDONNI SOVG'A KUTMOQDA

Aziz o'quvchilar! Xabaringiz bor, gazetamizning 2009-yil 10-avgust sonida Abu Rayhon Beruniy bobomiz hayoti va faoliyatiga oid «Viktorina savollari»ni bergan edik. Bugun esa savol muallifi Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 10-maktabning tarix va geografiya fani o'qituvchisi Asliddin Boliqulovdan siz uchun atalgan sovg'ani qabul qildik. Shoshiling, sirli sovg'a o'z egasini kutmoqda!

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

O'tgan sonlardagi «O'zbekiston madhi» boshqotirmasining davomi



1. Mustaqillik yillarida bunyod etilgan tog' dovon yo'li.
2. Farg'ona vodiysining g'arbidagi gidrotexnika inshooti.
3. Yengil avtomobil markasi.
4. Respublikamiz hududidagi vodi.
5. O'zbek mumtoz, g'azalnavis shoirasi.
6. O'zbekiston Qahramoni, Oltinko'l tumanidagi «Oltin vodiylar gulshani» fermer xo'jaligi boshlig'i.
7. Shifobaxsh shirinlik yetishtirish sohasi.
8. O'zbekiston yoshlari ijtimoiy harakati tashkiloti.
9. Hududimizda joylashgan pasttekislik.
10. Markazi, gullar shahri nomini olgan viloyat.
11. Yaylovlarga boy tog'lik tumani.
12. Diyorimizda Asad oyida pishib yetiladigan qovun navi.
13. Oqsuv nomi bilan boshlanuvchi daryoning nomi.
14. Istiqlol yillarida ming yilligi nishonlangan, ekranlashtirilgan o'zbek xalqi qahramonlik dostoni.
15. Oqsaroy obidasi bunyod etilgan tarixiy shahar.
16. Shaftolining hosili yirik navi.
17. Qumlik cho'l hududi.
18. Farg'ona vodiysidagi neft konlaridan biri.
19. Chorvachilik mahsuloti, mo'yna.
20. Sug'orilmaydigan dehqonchilik.
21. Samarqanddagi me'moriy obidalardan biri.
22. Arxeologlar tomonidan o'rganilgan Surxondaryo viloyatidagi qadimiy shahar xarobasi.
23. Taniqli o'zbek shashkachi ayoli.
24. O'zbek davlatchiligi tarixiga asos hisoblanuvchi, istiqloq yillarida 2700 yilligi nishonlangan noyob asar.
25. Poytaxtimiz viloyatidagi kimyogarlar shahri.
26. Atoqli o'zbek adibi, romanchiligimiz asoschisi.
27. Farg'ona viloyatidagi obod etilgan cho'l hududi.
28. Vatanimiz yosh iste'dod sohiblariga sazovor bo'ladigan mukofot.
29. Asaka avtomobili markasi.
30. Masofali tizimda ta'lim olishni tashkil etilgan jamg'arma.
31. Anorzor bog'lari bilan mashhur bo'lgan maskan.
32. Vatanimizning oliy inshootlaridan biri.
33. Navoiy viloyatidagi shahar.
34. Bokschi, Olimpiada o'yinlari chempioni.
35. Cho'llik hududidagi obod qilingan maskan.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Zuhra
MUHSIMOVA
Navbatchi:
Axtamqul KARIM,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa ijodiy
uyida chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 26426
Buyurtma N: J 8113

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

